

**ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVIDA SIYOSIY YETAKCHILARNI
BAHOLASHNING SIYOSIY MEXANIZMLARI: SIYOSIY METOD VA
TEXNOLOGIYALARI**

Mardanov Sardorbek Zafar o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo‘nalishi

Siyosat-22/A1 guruhi 4-kurs talabasi

Email: davronovz73@mail.com

Orcid ID: [0009-0001-5305-5860](https://orcid.org/0009-0001-5305-5860)

O‘zbekiston Respublikasi. Toshkent sh.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada siyosiy yetakchilarni baholashda foydalaniladigan siyosiy metodlar va texnologiyalarning davlat boshqaruvidagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy davlatlarning davlat siyosati va boshqaruvida siyosiy yetakchilarni baholash uchun qo‘llaniladigan siyosiy usullar iyerarxiyasi keltiriladi. Maqolada so‘ngi yillardagi ilmiy tadqiqot ishlarida bu boradagi natijalar hamda xulosalar ham keltirib o‘tiladi. Ushbu maqolada siyosiy yetakchilarni baholashda AQSH, Rossiya, Singapur va Buyuk Britaniya davlatlari tajribalari tahlili ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Davlat boshqaruvi, siyosiy yetakchi, siyosiy metod, siyosiy texnologiya, siyosatshunoslik, siyosiy menejment, davlat siyosati.*

**POLITICAL MECHANISMS FOR EVALUATING POLITICAL LEADERS IN
THE GOVERNANCE OF MODERN STATES: POLITICAL METHODS AND
TECHNOLOGIES**

Abstract: *This article analyzes the role and importance of political methods and technologies used in evaluating political leaders in public administration. A hierarchy of political methods used to evaluate political leaders in public policy and governance of modern states is presented. The article also presents the results and conclusions of recent scientific research in this regard. The article analyzes the experiences of the United States, Russia, Singapore and the United Kingdom in evaluating political leaders.*

Keywords: *Public administration, political leader, political method, political technology, political science, political management, public policy.*

ПОЛИТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ОЦЕНКИ ПОЛИТИЧЕСКИХ ЛИДЕРОВ В УПРАВЛЕНИИ СОВРЕМЕННЫМИ ГОСУДАРСТВАМИ: ПОЛИТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ И ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация: В статье анализируются роль и значение политических методов и технологий, используемых при оценке политических лидеров в государственном управлении. Представлена иерархия политических методов, используемых для оценки политических лидеров в государственной политике и управлении современными государствами. В статье также представлены результаты и выводы последних научных исследований в этом направлении. В статье анализируется опыт США, России, Сингапура и Великобритании по оценке политических лидеров.

Ключевые слова: Государственное управление, политический метод, политический лидер, политическая технология, политическая наука, политический менеджмент, государственная политика.

KIRISH.

Rivojlangan davlatlarning zamonaviy davlat boshqaruvi jarayonlari modernizatsiyasi va transformatsiyasi mazkur sohaning bir qismi hisoblangan siyosiy yetakchilarning boshqaruv kompetensiyasi va ularning strategik imkoniyatlarini tahlil qilishni talab qilmoqda. Shu bois, ko‘pgina rivojlangan davlatlar siyosatida siyosiy yetakchilarni siyosiy baholash indikatorlarining yaxlit siyosiy metodologiyasi va texnologiyasini yaratishni taqazo qilmoqda.

Maqola mavzusining obyekti: Siyosiy yetakchilarni baholashning siyosiy mexanizmlari bo‘lgan siyosiy metod va texnologiyalari hisoblanadi.

Maqola mavzusining predmeti: Mazkur mavzu dolzarbligiga va zaruriyatiga hamda ilmiyligiga xizmat qiluvchi nazariy-fundamental hamda amaliy siyosiy defenitsiyalar, metodlar, tadqiqot ishlari hamda ularning dinamik iyerarxiyasi.

Maqola mazusining dolzarbligi va zarurati: Rasmiy-huquqiy jihatdan tan olingan suveren davlatlarning boshqaruv siyosatida siyosiy yetakchilarni baholash orqali ularning mazkur sohada tutgan roli va pozitsiyasiga xolisona va ilmiy rakrusda ko‘rsatib berish hisoblanadi.

Maqola mavzusining vazifalari:

Birinchiidan, ko‘pgina zamonaviy davlatlarda siyosiy yetakchilarni baholash bo‘yicha amaliy tajribalarni namoyon etish hisoblanadi.

Ikkinchiidan, bu boradagi eng so‘nggi ilmiy yangiliklarni ilmiy jamoatchilikka havola etish.

Uchinchidan mazkur soha taraqqiyotining davlat siyosati va boshqaruv texnologiyalariga ta'sirini o'rganish vazifa qilib belgilangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Bu borada siyosiy yetakchilarning davlat boshqaruvidagi dominant o'rni hamda muhitga moslashuvchligini O'zbekistonlik bir qator olimlar ilmiy tatqiqot ishlarida quyidagicha keltirishadi:

Odilqoriyev X.T va Razzoqov D.X larning "Siyosatshunoslik" kitobida siyosiy yetakchilar borasidagi fikrlari: "Dunyoning turli mintaqalaridagi davlatlar va xalqlar ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berayotgan hozirgi zamonda siyosiy yetakchilik fenomeni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatni qayta qurish va hokimiyat tarkibining asosiy elementlaridan biri bo'lgan siyosiy yetakchi rolini bilib olish faqatgina u yoki bu siyosiy arbobga xos shaxsiy sifatlarni, uning ijtimoiy hayotga ta'sirini aniqlash uchungina emas, balki avvalo siyosatning chuqur ijtimoiy -falsafiy mohiyatini tushunib olish uchun ham muhimdir. Siyosiy yetakchilik hodisasini tahlil etishda Sharqda Abu Nasr Farobiy, Nizomulmuluk, Amir Temur, Alisher Navoiyning xizmatlari, G'arbda esa, N.Makiavellining ilmiy merosi diqqatga sazovordir. Ularning fikricha, siyosiy yetakchi – butun jamiyatni jipslashtiruvchi, ijtimoiy tartiblarni saqlab qolish va mustahkamlash uchun har qanday vositalarni qo'llovchi hukmdordir¹⁵¹." talqinida keltirishadi.

Yusupov J. Atavullayev M, Akramov J, Abdullayev B. lar "Amaliy siyosatshunoslik" kitobida esa bunday tatqiqot natijalari mavjud: "Davlat va jamiyat taraqqiyoti hamda strategik maqsadlarini amalga oshirishda rahbar faoliyati va uning o'rni juda muhim ahamiyatga ega. Bu borada Niderlandiyada bir nechta munitsipalitet akademiyasida o'zini o'zi boshqaruv sohasi uchun kadrlar tayyorlanadi. Fransiyada esa davlat xizmatchilarini oliy ta'limdan keyingi davrlarda qayta o'qitish, ularning malakasini oshirish, kasbiy jihatdan qayta tayyorlash ishlari bilan sohalar bo'yicha boshqaruv nazariyasi va amaliyotini o'rgatishga maxsus ixtisoslashgan 240 dan ortiq ta'lim maskanlari shug'illanadi¹⁵²."

Bo'tayev U.X. ning "Siyosiy tahlil" kitobida mazkur soha faoliyatidagi natijalarni taqdim etadi: "Murakkab siyosiy vaziyatlarda maydonga chiqadigan yetakchilar siyosiy jarayonlar bilan birga, jamiyatda ma'lum bir qatlamni, siyosiy tashkilot yoki harakatni boshqaradi, zarurat tug'ilgudek bo'lsa, voqealarning borishi va siyosiy jarayonlar yo'nalishini o'zgartiradi. Amerikada Ronald Reygan, Yevropada Gelmut Koll, Vatslav Gavel, Margeret

¹⁵¹ Odilqoriyev X.T. Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. – Toshkent: "O'qituvchi". 2008. 170-171-b.

¹⁵² Yusupov J. Atavullayev M, Akramov J, Abdullayev B. Amaliy siyosatshunoslik: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti nashri, 2023. 148-151-b.

Tetcher singari siyosiy yetakchilar tarixiy rivojlanishni belgilovchi dastur va g‘oyalarni o‘rtaga tashlab siyosiy jarayonlarni jonlantirib yubordilar¹⁵³.”

METODOLOGIYA VA TATQIQOT USULI.

Zamonaviy davlat boshqaruvida siyosiy yetakchilarni baholashning muhim texnologik metodlari va ularning usullari mavjud hisoblanadi.

Bunday usullar kontekstida “Xulq-atvor usuli” asosiy yetakchi usul sifatida 1960-yillarda siyosiy yetakchilarning davlat boshqaruvida xatrti-harakatlari va xulq-atvor hamda qobilyati asosida baho berishadi. Shu boisdan ham bu usul siyosiy yetakchilarni 3 ko‘rinishda tahlil qiladi. Bu yetakchilar “Demokratik yetakchilar, liberal yetakchilar” uslubdagi yetakchilar. Bu 3 ko‘rinish siyosiy yetakchilar faoliyati uchun muhim asosiy farq va ularning baholari berilib boriladi¹⁵⁴.

360 daraja uslubi “360-degree feedback” usuli orqali siyosiy yetakchilarning faoliyatiga bir nechta subyektlarning shaxsiy fikr va natijalariga tayanib baho berish hisoblandi. 360 darajali fikr-mulohaza - bunday baholash usuli xodimlar atrofida ishlaydigan odamlardan maxfiy, anonim baholarni oladigan tizim yoki jarayon. Bu usul har tomonlama bir nechta nuqtai nazardan fikr-mulohazalarni o‘z ichiga olgan xodimning ish faoliyatining yaxlit ko‘rinishini taqdim etadi. Bu xodimlar orasida o‘z-o‘zini anglashni yaxshilashga yordam beradi.¹⁵⁵

KPI usuli orqali baho berish. Bu KPI (Key Performance Indicators) – asosiy samaradorlik ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan maqsadlarni, taraqqiyotni o‘lchash uchun muhim bosqichlarni va tashkilot bo‘ylab odamlarga yaxshiroq qarorlar qabul qilishga yordam beradigan tushunchalarni taqdim etadi. KPI dastlab, iqtisodiyotda qo‘llanilgan va biznes natijalariga maksimal ta’sir ko‘rsatish uchun kuzatish kerak bo‘lgan asosiy maqsadlardir. KPI baholash usulida 10 ballik shkala asosida baholanadi. KPI baholash metodi dunyo mamlakatlarining barchasida davlat xizmatlari va boshqaruvi sohalarida xodimlarni va siyosiy yetakchilarni baholash uchun qo‘llanilib kelinadi. Uning strategik, operatsion, funksional imoniyatlarga ega¹⁵⁶.

Suhbat va intervyu usuli, o‘yin va simulyatsiya usullari, ijtimoiy tarmoq tahlili, reputatsiya tahlili, emotsional intellekt baholash usullari ham siyosatshunoslikda qo‘llaniladi va ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur siyosiy yetakchilarni baholashga xizmat

¹⁵³ Bo‘tayevev U.X. Siyosatshunoslik : darslik. – Toshkent: Info Capital Books, 2024. – 183-b.

¹⁵⁴ The Behavioral Approach in Political Science. https://archive.org/details/sim_american-political-science-review_1961-12_55_4/page/763

¹⁵⁵ What is 360 degree feedback? <https://www.custominsight.com/360-degree-feedback/what-is-360-degree-feedback.asp>

¹⁵⁶ What is a KPI.

<https://www.qlik.com/us/kpi#:~:text=KPI%20stands%20for%20key%20performance,the%20organization%20make%20better%20decisions.>

qiluvchi siyosiy baholash usullaridan siyosiy kompaniyalar davrida, siyosiy menejmentda hamda strategik samaradorlik reytinglarida foydalaniladi.

BARS (Behaviorally Anchored Rating Scales) – xatti-harakatlarga asoslangan baholash shkalalari siyosiy yetakchilarning davlat boshqaruvidagi faoliyatini baholashda qo‘llaniladi. BARS siyosiy baholash usuli – siyosiy yetakchilarning qobiliyat darajasi, va xulq – atvoriga muayyan shkalalar bo‘yicha baho berish hisoblanadi. Bir qanday manbalarda bu usul 4 shkalada ya‘ni 1-qoniqarsiz, 2-qoniqarli, 3-yaxshi, 4-juda yaxshi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi va har bir qismga maxsus savollar va kategoriyalar belgilanadi. Biroq ba‘zi hollarda bu usuldan foydalanilmaydi. Bunga “Agar bo‘lsa, nima qilgan bo‘lar edingiz?” savoli bu usul uchun qo‘llanilmaydi.¹⁵⁷ Ba‘zi hollarda mazkur usulga shunday ta‘riflar keltiriladi, ya‘ni, Xulq-atvoriga asoslangan reyting shkalasi (BARS) – bu xodimlarning xatti-harakatlarini baholash shkalasining har bir darajasiga bog‘langan misollarga moslashtirish orqali muayyan o‘lchovlar bo‘yicha ish faoliyatini baholash vositasidir – odatda besh, yeti yoki to‘qqiz balldan foydalangan holda mazkur xatti-harakatlarni o‘lchash mumkin. Bu usuldan 1980-yilda AQSHda GE kompaniyasining sobiq bosh direktori Jek Uelch kompaniyadagi barcha xodimlarni A, B, C guruhlariga bo‘lib, xodimlarni A guruhi – eng faol va rag‘barlantiriladigan, B- guruhi faol va o‘rtacha, C- guruhi esa, faol bo‘lmagan va ishdan bo‘shatiladigan qismlarga achratish, kompaniyadagi yetakchi va xodimlar muvozanati va samaradorligida muhim bo‘lgan. 2008-yilda “Jahon iqtisodiy inqirozi”da ham bu usul samarali ish bergan. Bu usulda “Jamoada ishlash, texnik mahurat, tashabbus, xodimning faoliyatida: is‘tetodlarni o‘zlashtirish, samaradorlikni boshqarish, karyera yo‘nalishi, vorisiylikni boshqarish kabi ko‘rsatkichlari ham mavjud”¹⁵⁸.

“Grafik reyting ko‘lami bo‘yicha baho berish” usuli – bu 1dan 5gacha, 1dan 10 gacha bo‘lgan shkalalar asosida baholash usuli hisoblanadi. Murakkab uzoq muddatli davlat xizmatchilari zaxirasidagi aylanma harakatlarda foydalaniladi. Bunda “Musbat” ko‘rsatkichlar hamda “Manfiy” ko‘rsatkichlar orqali siyosiy yetakchilarning faoliyat samaradorligiga xizmat qilish uchun qo‘llaniladi.

“Tanqidiy voqealar” usuli – bu siyosiy yetakchining siyosiy faoliyati davrida uning barcha ijobiy va salbiy xatti-harakatlari va ularning ko‘rinishlari tahlil qilinadi.

“Maqsadlar bo‘yicha baholash” (Management by Objectives - MBO) ham siyosiy yetakchilik va boshqaruvni baholashda qo‘llaniladi. “baholash markazlari” metodi ham

¹⁵⁷ Implementation tool – Behaviourally Anchored Rating Scales (BARS). <https://www.vic.gov.au/place-based-approaches-capability-framework/implementation-tool-behaviourally-anchored-rating>

¹⁵⁸ Behaviorally Anchored rating Scale: Example + Guide. <https://www.aihr.com/blog/behaviorally-anchored-rating-scale/>

mavjud bunda siyosiy yetakchilarning faoliyati maxsus tashkil etilgan joylarda va markazlarda maxsus test, vaziyatlar va bir qator o‘lchovlardan o‘tishadi.

“Saralash usuli” orqali baho berish ham siyosatshunoslikda keng qo‘llanilib kelinayotgan usullardan biri hisoblanib, unda siyosiy yetakchilar orasidan maxsus ko‘rsatkichlar asosida baholash nazarda tutiladi.

MUHOKAMALAR.

Siyosiy yetakchilikni tushunish va o‘lchash murakkab ishdir. Garchi barchamizda “yaxshi” rahbar qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi ideallar mavjud bo‘lsada, ular ko‘pincha murakkabdir. Amerikalik olim Mark Bennister tomonidan “Siyosiy yetakchilik kapitali indeksi” usuli taklif etilgan. Bu usul – siyosiy yetakchining vakolatini hisobga olib, “Siyosiy kapital” g‘oyasidan kelib chiqqan va bu rahbarga qanday vakolatlar berilishi va undan rahbarning qanday qilib foydalanishini nazarda tutadi¹⁵⁹.

Siyosiy yetakchilik keng obyektiv asoslarga egadir. Unda avvalambor, o‘z hayotiy va funksional qobiliyatlarini ta‘minlash maqsadida tizimning alohida unsurlari xulqini tartibga solish va o‘zini o‘zi uyushtirish ehtiyojlari taalluqlidir. Bu kabi tartibga solish vertical (boshqarish-bo‘ysinish) va gorizantal (korrelyativ bir xil darajadagi aloqalar) ravishdagi funktsiyalar va rollarni taqsimlash, ularning tuzilmalarini samarali ravishda amalga oshirish uchun ierarxiyali va piramidali tashkillashtirish talablari amalga oshiriladi. Bu kabi boshqaruv piramidasining cho‘qqisi sifatida yetakchi namoyon bo‘ladi¹⁶⁰.

Zamonaviy siyosatshunoslikda siyosiy yetakchilarni baholash texnologiyalari sifatida siyosiy kommunikatsion texnologiyalarini keltirib o‘tish mumkin.

Siyosiy tizim rivojining zamonaviy malakasi haqiqatan siyosiy hayotni shakllantirishda, ayniqsa industrial rivojlangan davlatlarda, axborot-texnologik vositalarning o‘rni ma‘lum darajada oshayotganligini namoyon etdi. Tarkibiy tomondan siyosat sohasini bog‘lovchi bu jarayon turli axborot-kommunikativ tizimlar o‘zaro harakatini, ya‘ni ma‘lum bir vazifani yechimini topish bilan bog‘liq bo‘lgan u yoki bu xabarlar oqimi atrofida shakllanadigan aloqalar va munosabatlar yig‘indisini o‘zida aks ettiradi. Shu asnda kanadalik olim Dj. Tomson axborot-kommunikativ aloqalarning ma‘naviy (semantik), texnik va ta‘sirchan darajalarini ajratishni taklif etdi. Siyosiy yetakchilarni baholashda siyosiy kommunikatsion texnologiyalarning va uning tarkibiga kiruvchi jamoatchilik fikrining o‘rni va ahamiyati

¹⁵⁹ How can we measure political leadership. <https://blogs.canterbury.ac.uk/politics/2017/06/01/how-can-we-measure-political-leadership/#:~:text=The%20wider%20environment%20also%20offers,why%20and%20how%20this%20happens.&text=Mark%20Bennister%2C%20Ben%20Worthy%20and,leadership%20capital%20on%20their%20blog.>

¹⁶⁰ Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti – Toshkent: “Sharq”, 2024. – 259-260-b.

yuqori hisoblanadi¹⁶¹. Siyosiy kommunikatsiya usulidan tashqari siyosiy imijni baholash usullari ham mavjud hisoblanadi.

Samarali yetakchilik jasorat, kuch, samarali muloqat qilish qobiliyati, bilim, mulohaza yuritish, halollik va shaxslararo munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Bu yerda muhim jihat bu – strategik rejalashtirish, vizualizatsiya va uni amalga oshirish qobiliyatining mavjudligi va uni faoliyatida qo‘lay olishi hisoblanadi¹⁶²

Amrikalik olim Stiven Skovronekning siyosiy yetakchilarga bergan izohlarida shunday jumlar uchraydi: “Demokratik davlatlar rahbarlari siyosiy o‘zgarishlarning vaqt bilan chegaralangan agentlaridir¹⁶³.”

Sharqiy Angilya universiteti professori Tobi S Jeyms o‘z ilmiy tatqiqotlarida mazkur mavzuga shunday o‘lchovlarni kiritadi: “Rahbarlikni ikkita o‘lchov bilan o‘lchash mumkin. Ulardan biri siyosiy siyosiy ayyorlik bilan etakchilikdir - bunda etakchilik g‘alaba qozonish va hokimiyatni saqlab qolishni o‘z ichiga oladi. Ikkinchisi – siyosiy vijdon bilan etakchilik - bunda etakchilik axloqiy jihatdan yaxshi narsalarni qilishni o‘z ichiga oladi. To‘liq rahbar ikkalsini ham bajaradi¹⁶⁴.”

NATIJARLAR.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida siyosiy yetakchilik borasida “Amerika siyosatida yetakchilik” asarida AQSH davlat boshqaruvi va siyosatida eng dolzarb muammolardan biri sifatida siyosiy yetakchilarni saylash va tayinlash turadi. Bu borada AQSH Milliy Kongressi: Vakillar palatasi a‘zolari va Senatning senatorlarlarini shakllantirish borasida murakkab ko‘p bosqichli jarayon amalga oshiriladi. Bundan tashqari AQSH prezidenti hamda har bir shtat gubernatorlari va rahbarlarining davlatning ichki va tashqi siyosatidagi roli ham baholanadi. Bu borada Byurokratiyaning ta’siri ham atroflicha o‘rganiladi. AQSHda siyosiy yetakchilikni baholash bu davlat boshqaruv mexanizmalridagi kirish yo‘lagi hamda kaliti sifatida e’tirof etiladi¹⁶⁵.

Novosibirsk universiteti tatqiqotchisi Nadejda Ponamerenkoning Siyosatshunoslikni rivojlantirish bo‘yicha Yevropa konsorsiumida tayyorlagan ilmiy ishida: “Rossiya davlat

¹⁶¹ Jumayev.R. Yovqochev.Sh. Siyosiy texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. – T: TDSHI. 2018. – 8-9-b.

¹⁶² Brown. J.M. Qualities of Effective Leadership. NCJRS Virtual Library. Volume: 49, Issue: 6. 1997. P.8-9.

<https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/qualities-effective-leadership#:~:text=The%20qualities%20of%20effective%20leadership.power%20to%20implement%20that%20vision>.

¹⁶³ Skowronek, Stephen, 'Political Leadership in the American Presidency: Four Temporalities', in Klaus H. Goetz (ed.), *The Oxford Handbook of Time and Politics*, Oxford Handbooks (2024; online edn, Oxford Academic, 4 Apr. 2019), <https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780190862084.013.5>, accessed 3 Oct. 2025.

¹⁶⁴ What is Political Leadership? <https://theconversation.com/game-of-thrones-what-machia-velli-might-have-made-of-the-politics-in-westeros-117696>

¹⁶⁵ Karol, David. “Parties and Leadership in American Politics.” *Leadership in American Politics*, edited by Jeffery A. Jenkins and Craig Volden, University Press of Kansas, 2017, pp. 141–66. *JSTOR*, <https://doi.org/10.2307/j.ctt207g569.9>. Accessed 3 Oct. 2025.

bosharuvida federal va mintaqaviy siyosiy yetakchilik tuzilmasi va unda shakllangan siyosiy elita korpusi muayyan transformatsion o‘zgarishlarni amaliyotda qabul qilmoqda. Bunda “Homiy-mijoz”, “Lobbichilik”, “Korrupsiya” masalalariga barham berish har bir siyosiy yetakchining asosiy vazifalaridan biri sifatida baholanadi¹⁶⁶.” mamunidagi tatqiqot xulosasi ko‘rsatib o‘tiladi. Rossiya davlat boshqaruvidagi siyosiy yetakchilikni tahlil qilishda xalqaro ilmiy hamjamiyat vakillari: Archi Braun, Jorj Breslauer, Yevgeniy Huski va Liliya Shevtsova kabi tatqiqotchilar tahlil qilishadi va bularning tatqiqot ishlari bir-biridan farq qiladi va muayyan bahsli nuqtalari ham mavjud. Biroq ularning tatqiqot ishlaridagi asosiy natija sifatida siyosiy yetakchilarning tabiatida “modernizatsion transformatsiya, siyosiy moslashuvchanlik hamda siyosiy tizim mustahkamligini saqlash xarakterlari” baholanadi¹⁶⁷.

Singapur davlat boshqaruvida siyosiy yetakchilik 1965-yil mazkur davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi sifatida baholanadi hamda bu borada Li Kvan Yuning davlat boshqaruvidagi yetakchiligi 1965-1990-yillar mobaynida aniq statistic ko‘rsatkichlar bilan baholanadi. Xususan, 1965-yilda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad 500 \$ ni tashkil etsa, 1990-yillardagi mazkur ko‘rsatkich 12000 \$ ni tashkil qiladi. Bu esa, iqtisodiy jihatdan samarali yetakchilikni amalga oshirilganligi hisoblanadi. Buning asosiy mexanizmlari sifatida “siyosiy prognozlash”, “siyosiy muhandislik”, “siyosiy texnologiyalar progressiyasi”, “kuchli davlat xizmati munosabatlar”, “siyosiy tahlil” kabi definitiviyalar bilan bog‘lanadi¹⁶⁸. Singapurda yosh siyosiy yetakchilarni qo‘llab-quvvatlash va ularni birlashtirish maqsadida “Singapur Yoshlar Milliy kengashi” tashkil etilgan va bu kengash o‘zining bir qator missalariga ega hisoblanadi. Bu esa, mazkur davlat siyosatida siyosiy yetakchilarni shakllantirishning istiqboldagi muhim strategiyasini yaratadi¹⁶⁹.

Buyuk Britaniya davlat boshqaruvi shakli konstitutsiyaviy monarxiya hisoblanganligi bois, davlat siyosatidagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy masalalar iyerarxik shaklda vakolatlar ketma-ketligida hamda siyosiy menejment etikasi va nizomiga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda dsavlat siyosatida yetakchi boshqaruv vakolatlarini huquqiy jihatdan taqsimlovchi Parlament va Bosh vazir hamda mahalliy boshqaruvning yuqori lavozimli davlat xizmatchilarining siyosiy yetakchi sifatidagi rolga baho normativ-huquqiy jihatdan baho beriladi. Qonun va ijro masalasi murakkab boshqaruv mexanizmlari asosida tartibga

¹⁶⁶ Leadership in Political System of Russia. <https://ecpr.eu/Events/Event/PaperDetails/60270>

¹⁶⁷ Mathews, Jessica T. “Foreword.” *Gorbachev, Yeltsin, and Putin: Political Leadership in Russia’s Transition*, edited by Archie Brown and Lilia Shevtsova, Carnegie Endowment for International Peace, 2001, pp. vii–viii. *JSTOR*, <https://doi.org/10.2307/j.ctt1mtz6bn.3>. Accessed 3 Oct. 2025.

¹⁶⁸ Lee Kuan Yew: How His Leadership Transformed Singapore.

<https://www.businessandleadership.com/leadership/item/lee-kuan-yew-leadership-transformed-singapore/>

¹⁶⁹ Our Singapore Leadership Programme. <https://www.nyc.gov.sg/research-engagement/youth-engagement/our-singapore-leadership-programme/>

solinadi¹⁷⁰. Buyuk Britaniyadagi davlat boshqaruvi bo'yicha eng yuqori reytingga ega universitetlar orasida London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi (LSE), Kembrij universiteti, Oksford universiteti turadi¹⁷¹. Mazkur universitet va maktablar siyosiy yetakchilarni baholashda xalqaro darajada tan olingan siyosiy indikatorlarni va ko'rsatkichlarni yoqlaydilar. Ular jumlasiga "Demokratiya indeksi, davlat boshqaruvi samaradorligi va iqtisodiy barqarorlik reytinglari" hisoblanadi.

XULOSA.

Demak, zamonaviy davlat boshqaruvida siyosiy yetakchilarning boshqaruv kompetensiyasi samaradorligini o'lchash va tahlil qilishda foydalaniladigan siyosiy metod va texnologiyalarning bir qator rivojlangan davlatlar boshqaruvida qo'llash va uning natijasini miqdoriy ko'rsatkichda ifodalash – bu davlatlardagi progressiv rivojlanuvchan va modernizatsion xarakterni ko'rsatib beradi. Bu orqali esa siyosiy tizim barqarorligida siyosiy yetakchining dominant roli namoyon bo'ladi. Bir qator davlat boshqaruvida o'zining rivojlanuvchan va progressiv ko'rsatkichiga ega bo'lgan davlatlar: AQSH, Singapur, Janubiy Koreya, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi davlatlarda bu ko'rsatkich yuqori hisoblanadi. Ularda siyosiy yetakchilar, menejerlar, boshqaruv raislari, institutsional tizim xodimlari hamda boshqaruv sohasiga oid bo'lgan subyektlarning (shaxslar, guruhlar) boshqaruv kompetensiyasi va ular amalga oshirayotgan strategik va taktik vazifalari davriy va sirkulyatsion tahlil bosqichlaridan va maxsus baholash indikatorlaridan o'tkazilib turadi. Bunday islohatlar dinamikasi mazkur davlatlar amaliyotida modernizatsion o'zgarishlarni xalqaro darajada ham bir qator davlatlar o'z davlat boshqaruvi texnologiyalarida ham qo'llab kelishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) Odilqoriyev X.T. Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. – Toshkent: "O'qituvchi". 2008. 170-171-b.
- 2) Yusupov J. Atavullayev M, Akramov J, Abdullayev B. Amaliy siyosatshunoslik: uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti nashri. 2023. 148-151-b.
- 3) Bo'tayev U,X. Siyosatshunoslik : darslik. – Toshkent: Info capital Books, 2024. – 183-b.

¹⁷⁰ Prime Minister. <https://www.gov.uk/government/ministers/prime-minister>

¹⁷¹ Public Administration in United Kingdom: 2026 master's Guide. <https://www.mastersportal.com/study-options/268927077/public-administration-united-kingdom.html#:~:text=Studying%20Public%20Administration%20in%20United.regularly%20featured%20in%20international%20rankings.>

4) The Behavioral Approach in Political Science.

https://archive.org/details/sim_american-political-science-review_1961-12_55_4/page/763

5) What is 360 degree feedback? <https://www.custominsight.com/360-degree-feedback/what-is-360-degree-feedback.asp>

6) What is a KPI.

<https://www.qlik.com/us/kpi#:~:text=KPI%20stands%20for%20key%20performance,the%20organization%20make%20better%20decisions>.

7) Implementation tool – Behaviourally Anchored Rating Scales (BARS).

<https://www.vic.gov.au/place-based-approaches-capability-framework/implementation-tool-behaviourally-anchored-rating>

8) Behaviorally Anchored rating Scale: Example + Guide.

<https://www.aihr.com/blog/behaviorally-anchored-rating-scale/>

9) How can we measure political leadership.

<https://blogs.canterbury.ac.uk/politics/2017/06/01/how-can-we-measure-political->

10) Qirg‘izboyev M. Siyosatshunoslik: oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti – Toshkent: “Sharq”, 2024. – 259-260-b.

11) Jumayev.R. Yovqochev.Sh. Siyosiy texnologiyalar: O‘quv qo‘llanma. – T: TDSHI. 2018. – 8-9-b.

12) Brown. J.M. Qualities of Effective Leadership. NCJRS Virtual Library. Volume: 49, Issue: 6. 1997. P.8-9. <https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/qualities-effective-leadership#:~:text=The%20qualities%20of%20effective%20leadership,power%20to%20implement%20that%20vision>.

13) Skowronek, Stephen, 'Political Leadership in the American Presidency: Four Temporalities', in Klaus H. Goetz (ed.), The Oxford Handbook of Time and Politics, Oxford Handbooks (2024; online edn, Oxford Academic, 4 Apr. 2019), <https://doi.org/10.1093/oxfordhb/9780190862084.013.5>, accessed 3 Oct. 2025.

14) What is Political Leadership? <https://theconversation.com/game-of-thrones-what-machiavelli-might-have-made-of-the-politics-in-westeros-117696>

15) Karol, David. “Parties and Leadership in American Politics.” Leadership in American Politics, edited by Jeffery A. Jenkins and Craig Volden, University Press of Kansas, 2017, pp. 141–66. JSTOR, <https://doi.org/10.2307/j.ctt207g569.9>. Accessed 3 Oct. 2025.

16) Leadership in Political System of Russia.

<https://ecpr.eu/Events/Event/PaperDetails/60270>

17) Mathews, Jessica T. “Foreword.” Gorbachev, Yeltsin, and Putin: Political Leadership in Russia’s Transition, edited by Archie Brown and Lilia Shevtsova, Carnegie Endowment

for International Peace, 2001, pp. vii–viii. JSTOR, <https://doi.org/10.2307/j.ctt1mtz6bn.3>. Accessed 3 Oct. 2025.

18) Lee Kuan Yew: How His Leadership Transformed Singapore.

<https://www.businessandleadership.com/leadership/item/lee-kuan-yew-leadership-transformed-singapore/>

19) Our Singapore Leadership Programme. <https://www.nyc.gov.sg/research-engagement/youth-engagement/our-singapore-leadership-programme/>

20) Prime Minister. <https://www.gov.uk/government/ministers/prime-minister>

21) Public Administration in United Kingdom: 2026 master’s Guide.

<https://www.mastersportal.com/study-options/268927077/public-administration-united-kingdom.html#:~:text=Studying%20Public%20Administration%20in%20United,regularly%20featured%20in%20international%20rankings>.